

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ME`ROJ KECHASI VOQEALARINING YORITILISHI

Muhammadjonova Guljahon Mahmudjon qizi

Farg`ona Davlat universiteti filologiya va tillarni o`qitish: o`zbek tili yo`nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq olamining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida insoniyat olamidagi katta mo`jizalardan biri hisoblanadigan Me`roj kechasining ta`riflanishi va ushbu mo`jizaviy kecha voqealarining asar bilan uyg`unlashuvi tahlillar orqali yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: Me`rojnomasi, Me`roj kechasi, Muhammad Payg`ambar

Абстрактный: В данной статье в произведениях великого мыслителя восточного мира Алишера Навои приводится описание ночи Мирадж, которая считается одним из величайших чудес в мире человечества, и совокупность событий этой чудесной ночи. В работе выделяются посредством анализа.

Ключевые слова: Мираджнома, Ночь Мираджа, Пророк Мухаммад

Abstract: In this article, in the works of the great thinker of the Eastern world, Alisher Navoi, the description of the Miraj night, which is considered one of the great miracles in the world of mankind, and the combination of the events of this miraculous night with the work are highlighted through analysis.

Key words: Mirajnoma, Night of Miraj, Muhammad the Prophet

Navoiy o`z dostonlarida an`anaga muvofiq muqaddima boblarni to`liq keltirib o`tgan. An`anaga ko`ra dostonidagi muqaddima boblarning birini Me`roj kechasi ta`rifiga bag`ishlaydi.

Me`roj lug`atda “yuqoriga ko`tarilish” degan ma`noni anglatadi. Shariatda esa Muhammad (s.a.v)ning Baytul Maqdisdan Sidratul Muntahaga – Allohning huzuriga ko`tarilishlariga aytiladi.

Me`rojnomasi boblar shoirning falsafiy, axloqiy-ta`limiy va komil inson haqidagi qarashlarini ifodalashda muhim vositadir.

Alisher Navoiyning ‘Xamsa’si tarkibidagi barcha dostonlarda va “Lison ut-tayr” dostonida ham Me`roj tuniga bag`ishlangan boblar mavjud. Ayni vaqtda boblar bir-birini takror etmaydi va hajm jihatdan ham farqlidir.

“Hayrat ul-abror” dostonining 11-bobi(53bayt) Me`roj kechasi tarifiga bag`ishlangan. Unda oxirzamon payg`ambarining mo`jizalari ko`p bo`lsa hamki, ul zotning ikki mo`jizasi – me`roj va shafolat hodisasi badiiy adabiyotda alohida tilga olinadi. Aynan me`roj hodisasi sodir bo`lgandan keyin kufr va iymon chegarasi aniq bo`ldi – bu hodisaga ishonganlar musulmon, ishonmaganlar kofir degan ilohiy hukm nozil bo`ldi.

“Lison ut-tayr”da 4-bob(53bayt) Me’roj kechasi bag’ishlangan. Navoiy ushbu bobni “U payg’ambarlik oftobining anqo qushining balandparvozlighi va haqiqiy mahbub visoliga yetib qush tili bilan so’zlashgani va sirlashgani” deb nomlaydi. Bobda payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) o’z hujralarida yaxshi kayfiyatda o’tirganlarida ularning oldiga ruhlar amini, ya’ni Jabroil a.s kelib, Allohning xabarini yetkazgani, farishtaning bir qo’lida yashinday tez uchadigan Buroq oti borligi va bu oti bilan yashin ham bahslasha olmasligi tasvirlangan. Ul zot samoga ko’tarilgach, Allohning jamolini ko’z bilan ko’rib, uning visolidan bahra topganlari, har lahzada 100ming hurmat ko’rsatib, 90ming so’z idrok etganlari, gunohkor ummatning gunohini va barcha og’ir ahvoliga chora istaganlari va barcha istaganlarini Haqdan topganlarini shoir mahorat bilan ifodalaydi.

Bobning yakunida Alisher Navoiy : “Ey Allohim, payg’ambar oraga tushgan kuni, u kimning gunohini tilasa, sen uning istagini qabul qilasan. Yuz minglab gunoh va tug’yon ahli ilohiy fazli bilan uning rahmatiga sazovor bo’ladi, uni ham zora noumid qilmasang” –deya o’z gunohlaridan panoh so’raydi.

“Farhod va Shirin “ dostoning 5-bobi(68bayt) Me’roj tuni ta’rifiga bag’ishlangan bo’lib, unda Payg’ambar(s.a.v) Buroq oti yordamida Allohning huzuriga 12burj va 7sayyoradan o’tib, Lomakonga ko’tariladilar va Allohga “qoba qavsayn” (ikki yoy oralig’i) darajasida yaqinlashadilar va foniy maqomiga erishadilar.

“Layli va Majnun” dostonida Me’roj kechasi ta’rifiga 4-bob(100bayt) bag’ishlangan. Bobning nomlanishi muayyan tarzda asarning bosh qahramoni hisoblanmish Laylining nomi bilan bog’liqlikni ifodalab, uyg’unlik kasb etadi: “Ul shomi visolingkim, “Val-layli izo yag’sho”(Tun qorong’iligi bilan olg’ay aning shanida savodi yozilmog’i...?”

Alisher Navoiy dostonning ushbu bobida Rasululloh (s.a.v)ning Haq vasliga orzumand bo’lishlari uning huzuriga ketayotganlarida behush bo’lishlari bilan bog’liq holatlarni keyinchalik dostonning asosiy qismida Majnun timsoliga ko’chiradi.

“Sab’ai sayyor “ dostonining 4-bobi Me’roj tuni ta’rifiga bag’ishlangan va bu Me’rojnoma 92baytdan iborat. Bobda Me’roj tuni, dunyoning moddiyligi haqidagi shoir qarashlari , koinot sirlari va burjlarga aloqador falsafiy fikrlar bayon etilgan.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi bob hajm na mazmun jihatidan ham eng katta va mukammali hisoblanadi. Bobda payg’ambarimizning birin-ketin 9-osmonga ko’tarilganlari , sayyoralarning bu holatini ko’rib, hayratga tushganlari , nihoyat Lomakon olamiga sayr qilib, 70ming qavat parda ko’tarilib, Janobi Haq bilan ko’rishganlari kuchli pafos bilan tasvirlangan.

6 dostonidagi Me’rojnomalarni o’qib chiqqach ularning asar bilan uyg’unlik kasb etganini ko’rish mumkin. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) Me’roj kechasi Allohning jamoliga yetishish uchun samoga ko’tarilish paytida hushsiz holatda bo’lganlari “Layli va Majnun” dostonida Majnunning yor ishqida behush holatda bo’lishi bilan bog’liq. Ularni bog’lab turgan sabab bitta – Mahbub ishq.

“Lison ut-tayr” dostonida qushlar Hudhuddan Simurg’ qushi haqida so’rashadi, Hudhud uning sifoti mingdan oshishi-yu, zotining yagona ekanligini aytadi. Asardagi barcha obrazlar majoziydir va shu o’rinda Simurg’ qushi majozida Allohga ishora qilinmoqda. Ular Simurg’ qushini izlashadi va yakunida Simurg’ aslida o’zlari ekanligini tushunib yetishadi, ya’ni bu Allohning qalbda ekanligiga ishoradir. Bunda ham Me’roj kechasi bilan bog’liqlik – Alloh vasliga orzumandlik.

“Farhod va Shirin” dostonida Farhod obraziga Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning barcha hislatlari ko`chiriladi va Farhod ideal va komil inson sifatida qaraladi. Farhodning Shirinni ko`rish va unga yetishishdagi sarguzashtida ma`lum bir bosqichlardan o`tishi Me`roj kechasi voqealaridagi Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning Haqning huzuriga borishlaridan oldin 12burj va 7sayyoradan otish voqealari bilan o`zaro uyg`unlik kasb etadi.

“Saddiy Iskandariy” dostonida Iskandar barcha quruqlikni egallab, dengizlarga ham ega chiqmoqchi bo`ladi va dengizga oshiqadi.

“Tasavvuf terminlari “ kitobida shunday ta`riflanadi: “Suv-ma`rifat, ilohiy fayz, vujud, zot”. [3.11-12.] Agar dengiz ilohiy laduniy olamning kengligini va cheksizligini anglatssa, undagi suv Allohni tanimoqlik va bilmoqlik ma`rifatini anglatadi. Kema ham tasavvufiy ma`no qirralariga ega. Bundan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, Iskandarning dengiz va suvga bo`lgan ishtiyoqi Haqning vasliga bo`lgan intilishdir. Shu jihatlari bilan Me`roj kechasi bilan bog`lasak yanglishmagan bo`lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Sh. Sirojjidinov, D. Yusupova, O. Davlatov. Navoiyshunoslik. T: Tamaddun, 2019
2. Alisher Navoiy . Sab`ai sayyor. O`zbek adabiyoti bo`stoni. Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi nashriyot. 1991-yil
3. Alisher Navoiy . Layli va Majnun. O`zbek adabiyoti bo`stoni. Toshkent, G`ulom nomidagi nashriyot. 1990-yil
4. Alisher Navoiy . Saddi Iskandariy. O`zbek adabiyoti bo`stoni. Toshkent, G`ulom nomidagi nashriyot. 1991-yil
5. Alisher Navoiy. Xamsa. T: Sharq. 2016